**Annotatsiya:** Maqolada milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarini jalg qilish va ulardan samarali foydalanish yo'llarini takomillashtirish bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etilgan. Xorijiy investitsiyalarini jalg qilish va ulardan samarali foydalanish jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni mamlakat investitsion faoliyat samaradorliga ta'siri baholangan. Xorijiy investitsiyalarini jalg qilish va ulardan samarali foydalanish yo'llari doirasida mavjud kamchiliklar aniqlangan. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarini jalg qilish tizimini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologik nou-xau, ijtimoiy-iqtisodiy tizim, patentlashtirish darajasi, innovatsiya muhiti, innovatsion samaradorlik.

**Abstract:** The article examines the processes related to attracting foreign investments to the national economy and improving the ways of their effective use. Factors influencing the processes of attracting foreign investments and their effective use were evaluated, and their impact on the effectiveness of the country's investment activities. In the framework of ways of attracting foreign investments and their effective use, existing shortcomings have been identified. A scientific proposal and practical recommendations on improving the system of attracting foreign investments to the national economy have been formulated.

**Key words:** technological know-how, socio-economic system, level of patenting, innovation environment, innovation efficiency.

**Аннотация:** В статье рассматриваются процессы, связанные с привлечением иностранных инвестиций в национальную экономику и совершенствование способов их эффективного использования. Оценены факторы, влияющие на процессы привлечения иностранных инвестиций и их эффективное использование, а также их влияние на эффективность инвестиционной деятельности страны. В рамках путей привлечения иностранных инвестиций и их эффективного использования выявлены имеющиеся недостатки. Сформулированы научное предложение и практические рекомендации по совершенствованию системы привлечения иностранных инвестиций в национальную экономику.

**Ключевые слова:** технологические ноу-хай, социально-экономическая система, уровень патентования, инновационная среда, эффективность инноваций.

## KIRISH

Obyektlarni boshqarishning sifati va samarasi operatsiyalarini tahlil etish usullarini hozirgi davrdagi tizimli yondashuvining funksional tahlil yordamida ifodalanishi iqtisodiyot uchun XX asrdagi iqtisodiy kashfiyot hisoblanadi. Lekin tizimli yondashuv iqtisodiyotning murakkabligi tufayli kam qo'ilaniladi. Bu boshqarish falsafasi bo'lib, o'tish davrida omon qolish, murakkab jarayonlarni oddiy jarayonlarga aylanishi, abstrakdan konkretga o'tishni ifodalaydi.

Bozor tamoyillaridan keng foydalanish sharoitida yangi texnologiyalarning kuchayib borishi, mahsulot va xizmatlarning raqobatchilik muhitiga moslashgan holda yaratilishini taqozo qilmoqda va bu jarayonda innovatsiya yutuqlaridan foydalanish tizimini hayotiy zarurat qilib qo'ydi. Mamlakatimizda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili bo'lgan innovatsiyalarga ustuvor yo'nalish sifatida e'tiborning qaratilishi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayoni xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini sezilarli darajada o'zgarishi va ular faoliyatini bozor talablariga moslashtirish zaruriyatidan kelib chiqmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini samarali rivojlanishini ta'minlovchi innovatsion faoliyatni boshqarishga alohida e'tibor qaratishni talab qilmoqda. Chunki innovatsion faoliyat bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlikning ilg'or shakli bo'lib hisoblanadi va u bozor iqtisodiyotida ilmiy-texnika taraqqiyotini rivojlanishi uchun real imkoniyatlar yaratadi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va ulardan samarali foydalanish yo'llarini shakllantirish doirasidagi qator tadqiqot izlanishlari xorijlik iqtisodchi olimlardan C.Liyesbeth, M.Miyet, S.Jo ilmiyizlanishlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar fikricha, o'tish davri mamlakatlarida iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish tizmini takomillash-tirishning muhim omili hisoblanadi. To'g'ridan to'g'ri kapitalni to'plash va texnologik nou-xau orqali milliy korxonalarga texnologiyalar va bilimlarni jalg qilinishi iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlaydi.

P.Mihayela, A.Vaqar, X.Helian tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning institutsional mexanizmi tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalariga muvofiq mamlakat iqtisodiyotidagi institutsional sifat o'zgarishlarining to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg etish tizimiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi.

V.D.Andrianov ilmiy tadqiqotlarida milliy iqtisodiyot investitsion salohiyatining nazariy asoslari o'rganilgan bo'lib, investitsiya salohiyati doirasidagi konsepsiylar nazariy jihatdan umumlashtirilgan, uni oshirish uchun moliyaviy imtiyozlardan tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan.

M.V.Charayeva ilmiy tadqiqotlarida tashkilotlarning real sarmoyalarni moliyaviy boshqarish jarayonlarining konseptual asoslari o'rganilgan. Innovatsion yo'naltirilgan iqtisodiyot sharoitida real sarmoyalarni strategik moliyaviy boshqarish xususiyatlari bayon etilgan.

F.U.Umarov tadqiqotlarida iqtisodiyotning tegishli tarmoq va sohalariga investitsiya jalg qilish ko'lamin kengaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.

A.Burxanov tadqiqotlari orqali hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning ilmiy-nazariy jihatlari o'rganilib, hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalg etishning muammoli jihatlari asoslangan hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

R.H.Bozorov ilmiy izlanish-larida investitsiya muhitining omillari, xususiyatlari, xorijiy investitsiyalarni jalg qilish milliy iqtisodiyotning xalqaro indekslarda ishtiokiga bevosita bog'liqligi tadqiq qilingan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani yozish jarayonida ilmiy tadqiqotni amalga oshirishning tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Keyingi yillarda iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o'zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoatning ulushi 2000-yilda 14,2 foizdan 2019-yilda 36 foizga yetdi. Natijada hozirgi kunga kelib sanoat mahsuloti umumiy o'shining qariyb 70 foizini yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalarni tashkil etmoqda. Shuning uchun ham so'nggi yillarda qo'liga kiritilgan natijalar xalqaro jamoatchilik va kuzatuvchilar, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan yuksak baholanmoqda.

Bu esa, mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining sezilarli darajada ortayotganligidan dalolat beradi. Shuning uchun sanoat korxonalarida innovatsion jarayonlarni tezlashtirish evaziga ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, mahsulot va xizmat turlarini muttasil yangilab borish negizida ularning raqobat-bardoshligini ta'minlovchi mexanizmlarni rivojlantirish milliy sanoatni modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ilmiy bilimlarning integrallashuvi, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan fanlar miqdorining ko'payib borishidagi muammolar;
- muammolarning kompleks holda ekanligi va ularni texnik, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va boshqa qirralarini hisobga olgan holda o'rganish zarurligi;
- muammolar yechimi va obyektlarning murakkablashuvi;
- obyektlar o'rtaida aloqalar sonining o'sishi;
- o'zgaruvchan holatlarning dinamikligi;
- resurslarning noyobligi;
- ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlari elementlarining avtomatlashuvi va standartlashtirish darajasining oshib borishi;



- raqobatning, ishlab chiqarishning, kooperatsiyalashuvi standartlashuv va hokazolarning baynalminalashuvi;
- boshqarish va hokazolarda inson omili rolining oshib borishi.

Aytib o'tilgan belgilari tizimli yondashuv usulini qo'llashni talab etadi, chunki, bizning nazarimizda uning asosida boshqaruv qarorlari sifatini oshirishga erishiladi. Tizimli yondashuv – obyektni tizim sifatida tahlil etish metodologiyasi hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim ikki qismidan iborat:

- tashqi muhit, u kirish va chiqish tizimidan iborat va tashqi muhit bilan aloqa (dastlab ichiga e'tibor berish)ni ifodalaydi;
- ichki tarkib – boshqarish subyektlarini obyektga ta'sirini tizimga kirish va chiqishni ta'minlaydigan o'zaro bog'liq bo'lgan komponentlar yig'indisidan iborat.
- Funksional yondashuv.** Menejmentga funksional yondashuvning mohiyati ehtiyojlarga, uni qondirish uchun kerak bo'lgan vazifalar yig'indisi sifatida qaralishini ifodalaydi. Vazifalar belgilanganidan so'ng ularni bajarish uchun bir nechta muqobil obyektlar ishlanadi va ularning ichidan hayot davrida foydalı samara birligiga sarflanadigan minimum yalpi xarajatlar talab etadigani tanlab olinadi.
- Predmetli yondashuv.** Hozirgi davrda boshqarishda asosan predmetli yondashuvdan foydalaniadi, uning yordamida mavjud obyekt rivojlantiriladi. Masalan, mavjud bo'lgan texnik tizim ilmiy-texnika taraqqiyoti tahlili, iste'molchilarining takliflarini marketing tad-qiqotlari yordamida o'rGANISH va uning nati-jalariga asoslangan holda takomillashtiriladi.

Predmetli yondashuvdan foydalangan holda investor va menejerlar kechagi kunga yetib olishga harakat qiladilar va hech qachon jahon darajasiga ko'tarila olmaydilar. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimning rivojlanishiga predmetli yondashuvdan foydalangan holda menejerlar takomillashtirishning mavjud tizimidan foydalananadilar. Tajribada menejerlar mavjud bo'lgan ishchi va xodimlarga ish topish muammosi bilan shug'ullanadilar. Funksional yondashuvda iste'moldan tashqariga "chiqish" talabidan "kirish" imkoniyatiga qarab harakat qiladilar.

Marketing yondashuvi. Marketing yo'naliishi menejment tizimidagi kichik tizimni boshqarishda iste'molchilarga mo'ljalangan har qanday vazifa yechими topishga qaratiladi. Masalan, korxona strategiyasi mavjud bo'lgan va kelajakda ishlab chiqariladigan mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan talab va takliflarga asoslanadi. Kelajakda strategiya ehtiyojlarni, bozor segmentatsiyasi strategiyasini funksional va predmetli yondashuvning belgi-larini ishlab chiqishni taqozo etadi.

**4-jadval: Innovatsion jarayonlarda funksional va predmetli yondashuvlarning farqlari**

Belgilari	Predmetli yondashuv	Funksional yondashuv
Marketing taddiqotlarning ko'lami va sifati	Ahamiyatli emas	Ahamiyatli
Mavjud mahsulotdan bozor ehtiyojlarining darajasi	To'liq emas	To'liq
Mahsulotni takomillashtirishda texnik yondashuv	Ishlab chiqarilayotgan modeldagи mahsulotga moslashtirish asosida	Mutlaq yangi mahsulotni ishlab chiqarish asosida
Mahsulotni yangilashni rejalahtirishda taqqoslash asosi	Raqobatchilarning eng yangi namunalarি	Bozordagi yangi chiqarilayotgan mahsulotlarga nisbatan yangilarini ishlab chiqish
Mahsulotning yangilik darajasi (patentlashtirish darajasi)	Ishlab chiqarilgan mahsulotni takomillashtirish	Yangi sifatli mahsulotlarni ishlab chiqish
Ishlanmalarda mehnat sig'imi va yangi mahsulotlarni o'zlashtirish	Past	Yuqori
Texnologiyalarning yangilik darajasi	Past	Yuqori
Ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etish	Mavjud tuzilmani takomillashtirish	Yangi korxonani loyihalashtirish
Bozorni o'zlashtirish darajasi	To'la o'zlashtirilgan	Bozor eski yoki yangi bo'lishi mumkin
Mahsulotni raqobatbardoshligi	Past	Yuqori



Marketing yondashuvidan foydalanilganda menejment mezonini tanlashning ustuvor yo'nalishlari quydagilardan iborat bo'ladi:

- iste'molchilarning istaklariga mos ravishda obyektning sifatini oshirish (tizimdan chiqish);
- obyektga xizmat ko'rsatish va boshqa omillar sifatini oshirish hisobiga iste'molchilar resurslarini tejash;
- ko'lam omilini amalga oshirish, ilmiy-texnika taraqqiyoti, menejment tizimini takomillashtirish asosida ishlab chiqarish obyektlarida resurslarni tejash.

Xo'jalik yuritishning markaziy-rejalahtirish tizimida ishlab chiqarishga yondashishning ustuvor muqobil yo'nalishi quydagilardan iborat bo'lgan:

- mahsulot tannarxini pasaytirish, ba'zida tannarxni oshirishdan foydali bo'lgan;
- mahsulot sifatini oshirish, iste'molchining mahsulotga sarflari belgilanmagan va boshqarilmagan.

Zamonaviy bozor sharoitida murosasiz raqobatning tobora kuchayib borishi korxonalarni yuqori darajadagi intellektual salohiyat va samarali texnologiyaga asoslangan innovatsion faoliyatni tashkil etishni talab qilmoqda. Shu boisdan, innovatsion faoliyat bilan bog'liq masalalarni hal etishda asosiy e'tiborni innovatsiyalarni yaratuv-chanlik salohiyati bilan birgalikda, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa mamlakatda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar va ilmiy tadqiqot muassasalari o'rtasida innovatsion hamkorlikni yaxshilash, ularning moddiy ba'zasini yanada takomillashtirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yaratilayotgan innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish bo'yicha samarali mexanzmn shakllantirish kabi masalalarini hal qilish lozim.

Innovatsion faoliyat bilan shug'ullanayotgan korxonalarga – yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlar, xizmatlar, texnologiyalar yoki ishlab chiqarish usullari va boshqa innovatsion faoliyat turlarini ishlab chiqish va joriy etish maqsadida tashkil etilgan innovatsion faoliyat (infratuzilma) subyektiga aytildi.

O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida innovatsiya insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylanmoqda. Innovatsiyalarni alohida korxonalar va qolaversa, butun iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatishiga ta'sirini muhim ahamiyati mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchilar tomonidan tadqiq etilgan hamda o'rganilgan.

"Innovatsion korxonalar" atamasi "innovatsiya" so'zi mohiyatini ochib berilishi bilan tavsiflanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu tushunchaga o'zbek, rus va xorij adabiyotlarida ham ko'plab ta'riflar berilgan. "Innovatsion korxona" tushunchasi negizida "innovatsiya" hamda "novatsiya" so'zları yotadi.

Bugungi kunda innovatsion korxonalar faoliyatini tashkil etishda xorij tajribasiga tayanib, ilmiy tadqiqotlar natijasidan kelib chiqib amaliyatga joriy qilish muvaffaqiyat keltiradi. Ammo, zamonaviy korxonalarining innovatsion faoliyatini samarali tashkil etish jarayoniga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Bularga:

- korxonaning innovatsion salohiyati (korxonaning ilmiy salohiyati, xodimlarning innovatsion biznes sohasidagi bilimlarga egalik darajasi, ilmiy tadqiqotlarga jalb qilingan mutaxassislar soni, korxonaning innovatsion mahsulot yaratishda zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan laboratoriyalarning mavjudligi hamda ulardan foydalanish samaradorligi);
- korxonaning joylashgan hududlar iqtisodiy salohiyati (faoliyat yurituvchi korxonalar soni va faoliyat turлari, ular o'rmasida raqobat muhitining shakllanganligi, ularning geografiyasidan kelib chiqib innovatsiyalarni o'zlashtira olish imkoniyatlari);
- korxonaning kadrlar salohiyati (xodimlarning mutaxassisliklari va ilmiy darajalari, aynan innovatsion mahsulot yaratish uchun jalb qilingan xodimlar soni va boshqalar);
- korxonaning investitsion salohiyati (innovatsiyalarni yaratish yoki ularni amaliyatga tatbiq etishdagи xarajatlarni to'la moliyalashtirish imkoniyatlari, innovatsiyalarni yaratishdagi tadqiqotlari va xodimlarning ish haqi bo'yicha salohiyati va boshqalar).

Zamonaviy korxonaning innovatsion mahsulotlarni yaratishdagi ilmiy salohiyati unda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot natijalarining sifati va soniga ta'sir etuvchi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xodimlarning xorijiy tajribalarga egaligi va o'z sohalari bo'yicha yetarli bilimga, zamonaviy fan-texnika yutuqlarini tezkorlik bilan o'zlashtira olish qobiliyatiga egaligi, turli sohalarda mavjud muammolarni aniq ko'ra bilishi va o'z bilimlarini ana shu muammolarni hal etishda qo'llay olishi korxonalarining innovatsion faolligini, yaratilgan innovatsiyalarning ishlab chiqarishga tatbiq etilish imkoniyatini oshiradi.

Innovatsion korxonalar faoliyati bo'yicha xorij amaliyotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak bu borada Janubiy Koreyani misol keltirishimiz mumkin. Jumladan, Koreya Respublikasi Xalqaro innovatsion indeksda 12-pog'onani egallab, hatto Yaponiya, Italiya, Finlyandiya kabi mamlakatlardan ham yuqori o'rinda turadi. Blumberg Innovatsion Indeksi reytingida esa ilmiy tadqiqotlar, oliy ta'lim tizimi va patent faoliyati bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi. Koreya davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda 3,35 milliondan ortiq kichik va o'rta innovatsion korxona faoliyat yuritib kelmoqda, bu ro'yxatga olingen xo'jalik yurituvchi sub-



yektlarning 99,9 foizini tashkil etadi. O'z navbatida, aholining ish bilan ta'minlash darajasi esa 87,7 foizni tashkil etadi. Bu innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ayniqsa yoshlarning startap loyihalarini ishga tushirishda o'ziga xos qulay shart-sharoitlar yaratilishi tufayli erishilgan natijalardir.

Korxona va tashkilotlardagi innovatsiyalarning iqtisodiy tarkibi avvalombor, doimiy hisoblangan ishlab chiqarish resurslarini erkinlashtirish uchun xizmat qiladigan parametrлarda ifodalanadi. Bunda eng avval korxonalaridagi material, mehnat, fond sig'imiлari ko'rsatkichlari o'zgaradi. Bu asosiy ko'rsatkichlar korxonalarining iqtisodiy taraqqiyoti turli bosqichlarida turli darajadagi innovatsiya jarayonlari ta'siri ostida bo'ladi. Jumladan, ishlab chiqarish jarayonida qo'l mehnatidan avtomatlashgan mehnatga o'tish bosqichida ishlab chiqarishning mehnat sig'imi va fond sig'imiда o'zgarishlar yuz beradi, ya'ni mehnat sig'imining qisqarishi fond sig'imi oshishiga olib keladi.

Korxonalarining innovatsion samaradorligini hisobga olish, tahlil qilish va oshirish uchun ularni ichki va tashqi miqyosda asosli klassifikatsiyalash zarur. Innovatsiyalarning o'ylab topilgan va ilmiy asoslangan klassifikatsiyasi ularni nafaqat oqilona hisobga olish, balki qo'llash darajasini ham har tomonlama tahlil etish va shu asosda samarali innovatsiya siyosatini, jumladan, korxonaning innovatsion salohiyati uchun ishlab chiqarish va amalga oshirish borasidagi zarur ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi.

Korxonalar faoliyatiga fan-texnika taraqqiyotidan farqli ravishda, innovatsiya jarayonini tatbiq etish bosqichi, ya'ni bozorda yangi mahsulot, xizmatning ilk bor paydo bo'lishi, yangi texnologiyaning loyiha darajasiga yetishi bilan tugallanmaydi. Bu jarayon tatbiq etishdan keyin ham uzilmaydi, u yoyilish darajasiga qarab, yangilik mukammallashtiriladi.

Natijada avval ma'lum bo'limgan iste'molchilik xususiyatlari hosil bo'ladi. Bu esa korxonalar uchun yangi bozorlar va qo'llanish sohalarini ochadi, o'z navbatida mazkur mahsulot, texnologiya va xizmatlarni o'zları uchun yangi sifatida qabul qiladigan iste'molchilarni topadi.

Korxonalar uchun bu jarayon tadbiq etilgandan keyin ham innovatsion faoliyat uzilmaydi, uning qamrab olish va yoyilish darajasiga qarab, yangilik mukammallashtirilib boriladi va avvalgisiga nisbatan ancha samaraliroq kechadi. Avval ma'lum bo'limgan yangi iste'mol xususiyatlari hosil bo'ladi. Bu esa, uning uchun yangi bozorlar va qo'llanish sohalarini ochadi, o'z navbatida, mazkur mahsulot, texnologiya va xizmatlarni o'zları uchun ma'qul iste'molchilarni topadi. Shunday qilib, bu jarayon bozor talab qiladigan mahsulotlar, texnologiyalar yoki xizmatlarni yaratishga yo'naltirilgan va u albatta, amal qiladigan va rivojlanadigan ijtimoiy-iqtisodiy muhitning sur'atlari, maqsadlariga bog'liq bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda O'zbekiston korxonalari uchun iqtisodiy holatni baholashga mos keladigan "innovatsiya muhit" iborasi bo'lg'usi innovatsiyalar uchun korxonalar jozibadorligini tavsiflaydi. Innovatsiya muhitini baholashda odatda bir qator parametr yoki belgilari qo'llaniladi. Mazkur parametrlar korxonaning innovatsiyalarini joriy etish salohiyati va ularni amalga oshirish tavakkalini tavsiflovchi belgilardir. Ularning eng asosiyлari quyidagilardir:

- makroiqtisodiy barqarorlik;
- innovatsiya faoliyatining huquqiy asoslari;
- soliq tizimining sifati va soliqqa tortish darajasi;
- bank tizimi va boshqa moliyaviy institutlar holati va ishonchliligi;
- infratuzilmaning rivojlanish darajasi;
- hamkorlar tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilishi;
- davlat boshqaruв tizimi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF5544-son Farmoni, 21.09.2018 y. <https://lex.uz/ru/docs/3913188>
2. Mirziyoyev Sh.M. Oliy majlisga murojaatnomasi <https://uza.uz/uz/posts/zbekistonrespublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
3. Шумпетер Й. Теории экономического развития. / Й. Шумпетер. – М.: Экономика, 1995й.– 540 с.
4. Дандон Э. Инновации: как определять тенденции и извлекать выгоду / Э. Дандон. – М.: Вершина, 2006.– 304 с.
5. Храмцова Н.А., Ахматова А.А. Теоретические основы управления инновационной деятельности предприятия. // Стратегии бизнес / Электронный научно-экономический журнал. –№ 10 (54). –2018. С. – 18-22.
6. Mamanazarov M. Innovatsiyalar – yengil sanoat korxonalarini boshqarishda iqtisodiy barqarorlik va rivojlantirish omili// Birja Ekspert. –Toshkent, 2010. –№11-12. –B. 26-28.
7. Mamasaatov T. "Innovatsiya", "innovatsion faoliyat" va "innovatsion iqtisodiyot" tushunchalarining nazariy talqini// Iqtisodiyot va ta'lim. –Toshkent, 2012. –№2. –B. 67-68.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

